**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**

**Televizion texnologiyalari fakulteti, Televizion va media texnologiyalar kafedrasi**

**2024-2025 o'quv yili 7 semestr uchun**

**"Hujjatli film yaratish texnologiyasi" fanidan**

# YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

1. Aka-uka Lyumyerlarning birinchi tajribalari haqida yozing.
2. Hujjatli kinoning asosiy yo'nalishlariga ta'rif bering.
3. Xronikal yo'nalishda suratga olgan birinchi Turkistonlik kinooperator haqida yozing?
4. Xronika qaysi prinsiplari bilan tomoshabinlar ishonchiga sazovor bo'ldi?
5. Taniqli kinohujjatchi D.Vertov, aynan qaysi kontseptsiyani hujjatli kino asosiga aylantirgan?
6. Intervyu suratga olishda ovozni sinxron yozish tartibini yoriting?
7. O'zbekistonda va dunyoda informatsion-xronikal yo'nalishini rivojlantirgan va uni badiiy darajaga olib chiqqan kinohujjatchilar tajribalari haqida yozing?
8. Intervyu beruvchi tutilib qolgan taqdirda shu joyini to'g'irlash, bilintirmaslik uchun qaysi usullardan foydalaniladi?
9. Badiiy hujjatli yo'nalishdagi filmlarga tarif bering?
10. Intervyuda gap boshida va qap o'rtasida tutilish, uzilish holatlari yuz berganda qanday yo'l tutiladi?
11. Faktlarga asoslangan filmlar tuzilishi va yaratilishi haqida ma'lumot bering?
12. Kamera matritsasining Full format o'lchami filmga qanday ta'sir qiladi, boshqalaridan farqini tushuntiring?
13. Intervyu suratga olish tartibi, stop holatlari, sabablarini tushuntiring.
14. Voqea mohiyatini ifadolovchi filmlar yo'nalishi haqida yozing?
15. Sahnalashtirilgan va aktyorlar ijrosi kiritilgan usul haqida yozing.
16. Ovoz yozish texnologiyasi va usullarini tushuntiring?
17. Syomkada xlopushka vazifasiga izoh bering?
18. Havaskor kamera professional kameralardan qaysi jixatlari bilan farqlanadi?
19. Hujjatli filmlarda janrlarga izoh bering.
20. Publisistika vazifalari va xususiyatlariga tarif bering.
21. Filmda ovoz elementlari turlari va ularnig vazifalariga izoh bering.
22. Filmda so'zlar ishtirok etishida - qanday turlarga bo'linadi va ularni tushuntiring?
23. Joyga kelish, ko'rish va oddiy ko'rsatish usulini tushuntiring?
24. Yashirin kamera usuli nima uchun kerak, natijalarini tushuntiring.
25. Filmda leytmotiv musiqasi ahamiyati haqida yozing?
26. Kinokuzatish usuli qanday usul, suratga olish qoidalarini tushuntiring?
27. Parandja va Buyuk oqim – filmlari mazmuni va suratga olgan shaxs haqida ma'lumot bering?
28. O'zbekistonda hujjatli filmlar asoschilari va ularning filmlari haqida yozing?
29. Reportaj suratga olishda nimalar muhim, tartibi va elementlarini tushuntiring.
30. Shimollik Nanuk - filmi voqealari, mazmuni, yaratilishi bo'yicha ma'lumot bering?
31. Filmda panorama, kamera harakati usuli qaysi holatlarda ishlatiladi, qanday natijalar beradi?

32. “Sena Parijni kutib oladi” filmida qanday voqea tasvirlanadi, qanday usulda suratga olingan, tahlil qiling.
33. “Qorako’l” filmida qanday voqea tasvirlanadi va qanday usulda suratga olingan?
34. Teleserial, tokshou va informatsion lavhalarning xususiyatiga ta’rif bering.
35. X.Devanov, M.Kayumov kabi insonlar faoliyatini yoriting.
36. Intervyu suratga olishda nimalarga ahamiyat qaratiladi, nima uchun aksariyat intervyularda inson o‘rta va yirik planlarda suratga olinadi?
37. Hujjatli filmlar funksiyalari, jamiyatdagi vazifasini tushuntiring.
38. Lyumerlar va Flaerti tajribalari haqida yozing.
39. D.Salimov filmlari bo’yicha qanday ma’lumotga egasiz.
40. Arhiv materiallari necha turga bo’linadi, vazifalari nimalardan iborat.
41. Musiqa filmga nima beradi, tasodifiy musiqalardan foydalanish mumkinmi?
42. Diktor ovozini yozishda qanday texnologik jihatlarga ahamiyat qaratish zarur.
43. Filmda syujet qurilishi tartibini tushuntiring.
44. Filmda so‘zning ahamiyatini tushuntiring, so’z qanday shakllarda nomoyon bo’ladi?
45. Badiiy-ramziy ifodalar shakllarini va xizmatini tushuntiring.
46. Hujjatli film boshqa kino turlaridan nimasi bilan farq qiladi?
47. Majoziy-obrazli hujjatli filmlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
48. Badiiy hujjatli filmda obraz yaratishda mualliflar qanday usullardan foydalanadilar?
49. Badiiy adabiyot va hujjatlarni hujjatli filmda qaysi ko’rinishlarda birlashtirish mumkin?
50. Televizion hujjatli filmning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
51. Hujjatli jurnalistika haqida qanday fikrdasiz?
52. Film janrini nima belgilaydi? Uning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
53. Filmda hikoyachi obrazining timsollari qanday?
54. Senariydagi voqealarni yoritishda muallifning yondashuvi qanday ko’rinishlarda nomoyon bo’ladi?
55. Dramatik asardagi konfliktning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
56. Lirik hujjatli filmda obraz yaratish uchun qanday usullardan foydalaniladi?
57. Obrazli hujjatli kino ijodkorining vazifalari qanday?
58. Telejurnalistikaning janr xususiyatlarini yozing.
59. Hujjatli filmdagi muallif pozitsiyasining murakkabligi nimada?
60. Hujjatli filmda mantiq va tasvir qanday birlashtiriladi?
61. Filmda qahramon yashagan, yoki yashaydigan va harakat qiladigan muhitni qanday belgilashimiz mumkin, misollar keltiring?
62. Kinoda vaqtni qanday usullar bilan ko‘rsatish mumkin?
63. Kadr qurish va suratga olish usullari haqida yozing.
64. Titr, matn terish va filmga kiritish jarayoniga ta’rif bering?
65. Tipologiya usulining afzalliklari va kamchiliklari qanday?
66. Rekonstruksiya printsipi yordamida tasvir yaratishning mohiyati nimada?
67. Ramziy kadrlar nima, ularning filmdagi roli qanday?
68. Film-ocherk ustida ishlash tartibini yozing, hujjatli filmlardan misollar keltiring.
69. Reportaj usulida suratga olishda, jarayon qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
70. Kuzatish usulining turlarini ayting. Ularning mohiyati nimada, ular film dramaturgiyasiga qanday hissa qo‘shadi?
71. Yashirin kamera usulining ijobiy va salbiy tomonlari qanday?

72. Kamerani suratga olishda ishtirokchilarga qanday tanishtirish va munosabatda bo'lish kerak?
73. Filmda o'tgan voqealarni qanday tiklash mumkin?
74. Provokatsiya usuliga qanday qaraysiz? Nega bu kerak?
75. Kasbiy axloq me'yorlari va tajovuzkorlik usuli haqida sizning fikringiz qanday?
76. Filmda arxiv kadrlaridan foydalanishning qanday afzalliklari bor?
77. Arxiv videomaterialining zamonaviy filmdagi talqiniga qanday qaraysiz?
78. Ikonografik materialga nimalar kiradi, ularning xizmati nimadan iborat?
79. Har xil kino janrlarida statik materialdan foydalanishning qanday shakllari va usullari mavjud?
80. Portret filmda inson harakterini ochib berishdagi ijodiy va texnik usullarni tushuntiring.
81. Ovozsiz filmlarning xususiyatlari haqida yozing.
82. Televizion janrlariga izoh bering.
83. Mualliflik filmlari vazifalari va xususiyatlariga tarif bering.
84. Filmda ovoz elementlari turlari qaysilardan iborat, vazifalarini tushuntiring?
85. Filmda so'zlar ishtirok etishida - necha turlarga bo'linadi ularni ta'riflang?
86. Joyga kelish, ko'rish va mushohada yuritib ko'rsatish usulida shakllanadigan filmlar ahamiyatini yoriting?
87. Filmda tarjimaning qanday usullari mavjud, kuchli va xavfli tomonlari qanday?
88. Ramziy, tasodifiy, leytmotiv musiqalariga izoh bering?
89. Kuzatish usuli qanday usul, natijalarini tushuntiring va misollar keltiring?
90. Tasvirga olishda ijodiy etika masalasi, haq-huquq haqida yozing?
91. O'zbekistonda hujjatli filmlar asoschilaridan kimlarni bilasiz, ularning yaratgan filmlaridan misollar keltiring?
92. Reportaj suratga olishda nima muhim, tartibi, texnikasi va elementlarini tushuntiring.
93. "Home"- filmi voqealari nima haqida va qanday suratga olingan?
94. Qo'lda suratga olish usuli qaysi holatlarda ishlatiladi?
95. "Monolog" filmida qanday voqea tasvirlanadi va qanday usulda suratga olingan?
96. "Yuzlarga qarang" filmi mazmuni nimadan iborat va qanday usulda suratga olingan?
97. Televizion informatsion lavha tayyorlash qoidalarini tushuntiring.
98. Videorolik talablari va tayyorlash tartiblarini tushuntiring.
99. Poetik hujjatli film yo'nalishini rivojlantirgan va uni badiiy darajaga olib chiqqan kinohujjatchi haqida yozing, filmlariga misollar keltiring?
100. Intervyu beruvchiga turli holatlarda yorug'lik yoritish usullarini, natija va sabablarini tushuntiring.

**Tuzuvchi:** **Ismailov K.**

**TMT kaf.mudiri:** **Nuraliyev F.**